

## INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISH STRATEGIYALARI

**To'rayeva Madinabonu Bahridin qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-kurs talabasi*

*mtorayeva56@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilini mustaqil o'rganish muammolarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mustaqil o'rganishning nazariy asoslari, samarali strategiyalari hamda o'quvchilar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar ko'rib chiqildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va o'quv manbaalarining mustaqil o'rganish jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil o'rganish samaradorligi o'quvchining motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va to'g'ri tanlangan strategiya va yondashuvlarga bevosita bog'liq. Mazkur ishda Henri Holec, David Little va Phil Benson kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, umumlashtirildi.

**Kalit so'zlar:** Ingliz tili, mustaqil o'rganish, o'quvchi avtonomiyasi, motivatsiya, strategiyalar, raqamli texnologiyalar.

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of problems related to independent English language learning. It examines the theoretical foundations of learner autonomy, effective learning strategies, and the main challenges faced by learners. In addition, the role of digital technologies and modern educational resources in the learning process is analyzed. The results of the study show that the effectiveness of independent learning depends on learners' motivation, self-regulation skills, and the use of appropriate strategies.

**Key words:** English language, independent learning, learner autonomy, motivation, learning strategies, digital technologies.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу проблем самостоятельного изучения английского языка. В ней рассматриваются теоретические основы автономного обучения, эффективные стратегии и основные трудности, с которыми сталкиваются обучающиеся. Также анализируется роль цифровых технологий и современных образовательных ресурсов в процессе обучения. Результаты исследования показывают, что эффективность самостоятельного обучения зависит от мотивации учащегося, навыков саморегуляции и использования соответствующих стратегий.

**Ключевые слова:** Английский язык, самостоятельное обучение, автономия учащегося, мотивация, стратегии обучения, цифровые технологии.

### **Kirish**

Mazkur tadqiqot ingliz tilini mustaqil o'rganish muammosiga bag'ishlangan. So'nggi yillarda mustaqil ravishda yangi til (ingliz tili) o'rganish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mavzu doirasida bir qator ilmiy ishlar amalga

oshirilgan bo'lsa-da, bunday o'rganish jarayonining aynan qanday olib borish kerakligi va samarali foydalaniladigan usullar haqida yetarlicha o'rganilmagan. Bu maqolani yozishdan maqsad shuki, zamonaviy ta'lim jarayonida til o'rganish qanchalik muhimligi, aynan ingliz tilini mustaqil o'ranish strategiyalari, o'rganish jarayonida foydalaniladigan usullar, yuzaga keladigan muammolar va ularni qanday bartaraf qilish yo'llarini ilmiy jihatdan ko'rib chiqishdir. Ushbu mavzu bo'yicha Henri Holic, David Little va Phil Benson kabi olimlar tadqiqotlar olib borib, mustaqil o'rganishni o'quvchining o'z ta'lim jarayonini nazorat qilishi, refleksiv yondashuv va turli xil shakllarda namoyon bo'ladigan jarayon sifatida izohlaganlar.

### **Metodologiya**

Mazkur tadqiqot nazariy tahlil usuliga asoslangan bo'lib, ingliz tilini mustaqil o'rganish muammolari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari tahlil qilinib, mustaqil o'rganishning asosiy tushunchalari, strategiyalari hamda samaradorligini ta'minlovchi omillar aniqlashtirildi.

Xususan, Henri Holec tomonidan ilgari surilgan o'quvchi avtonomiyasi tushunchasi, David Littlening refleksiv yondashuvi hamda Phil Bensonning mustaqil o'rganish shakllari haqidagi fikrlari o'rganildi va ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va mustaqil ta'lim resurslarining o'rni ham ko'rib chiqildi.

Tahlil jarayonida solishtirma va umumlashtiruvchi usullardan foydalanilib, turli ilmiy manbalarda ilgari surilgan g'oyalar o'zaro taqqoslandi hamda yagona nazariy xulosalar shakllantirildi. Ushbu yondashuv tadqiqot muammosini yaxshiroq anglash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

### **Tahlil**

#### **1. Mustaqil o'rganish tushunchasi**

Ingliz tilini mustaqil o'rganish o'quvchining o'z ta'lim jarayonini boshqarish qobiliyati bilan bog'liq. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki uni rejalashtiradi va baholaydi. "Learner autonomy is the ability to take charge of one's own learning." (Holec, 1981) Henri Holec mustaqil o'rganish nazariyasini shunday ta'riflaydi va bu fikr mustaqil o'rganishning asosiy mohiyati o'quvchining mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, mustaqil o'rganish jarayoni faqatgina yangi narsalarni egallashni o'z ichiga olibgina qolmay, o'quvchilarda mas'uliyat hissini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, David Little quyidagicha ta'kidlaydi:

"Autonomy is essentially a matter of the learner's psychological relation to the process and content of learning." (Little, 1991)

Bu esa mustaqil o'rganishda psixologik omil va o'quvchining o'z-o'zini anglash darajasi muhimligini bildiradi.

## 2. Mustaqil o'rganish strategiyalari

Mustaqil o'rganishda turli strategiyalar qo'llaniladi va ular har bir o'quvchida turlicha namoyon bo'ladi.

Phil Benson bu haqida shunday deydi:

"Autonomy is not a single, easily described behavior, but a capacity that can take many different forms." (Benson, 2001) Bu fikr mustaqil o'rganish bir xil usulga asoslanmasligini, balki individual yondashuv talab qilishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari Ingliz tilini mustaqil o'rganish jarayonida samarali natijaga erishish uchun turli strategiyalar va usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil o'rganish strategiyalari o'quvchiga tilni tizimli ravishda o'zlashtirish, bilimlarni yanada mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu strategiyalar o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, maqsadi va o'rganish uslubiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

### a) Maqsad qo'yish va rejalashtirish strategiyasi

Mustaqil o'rganishning eng muhim bosqichlaridan biri aniq maqsad qo'yishdir. O'quvchi qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarni belgilab olishi kerak (masalan, yangi so'zlarni yodlash, grammatikani mustahkamlash yoki gapirish ko'nikmasini rivojlantirish). Kunlik yoki haftalik o'quv rejasi tuzish o'rganish jarayonining davomiyligini ta'minlaydi.

### b) Authentic materiallardan foydalanish strategiyasi

Ingliz tilini samarali o'rganish uchun real hayotda ishlatiladigan materiallardan foydalanish muhimdir. Bu materiallarga filmlar, podkastlar, yangiliklar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar kiradi. Bunday turdagi materiallar tilni tabiiy kontekstda o'rganish imkonini yaratadi.

### d) Faol lug'atni rivojlantirish strategiyasi

Lug'at boyligi til o'rganishning asosiy qismlaridan biridir. Mustaqil o'rganishda yangi so'zlarni yodlash bilan birga ularni kontekstda qo'llash, ya'ni yodlangan so'zlarni real muloqotda ishlatib o'rganish muhim hisoblanadi. So'zlarni jumlar ichida ishlatish, ularni yozma va og'zaki nutqda qo'llash ularning uzoq muddatli xotiradan joy olishini ta'minlaydi.

### e) O'z-o'zini baholash va refleksiya strategiyasi

O'quvchi o'z bilim darajasini muntazam baholab borishi kerak. Bu testlar, kichik yozma ishlar yoki o'z nutqini yozib tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Refleksiya esa o'quvchiga o'z xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Bu jarayon mustaqil o'rganishning samaradorligini oshiradi.

f) Raqamli texnologiyalardan foydalanish strategiyasi

Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini mustaqil o'rganishda katta imkoniyatlar eshigi hisoblanadi. Mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet kabi), onlayn kurslar va video platformalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va joyda o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan vositalar ham til o'rganish jarayonini individuallashtirishga yordam bermoqda.

3. Muammolar va texnologiyalar

Ingliz tilini mustaqil o'rganish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin va ular o'quvchilarning kutilgan natijaga erishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri – motivatsiyaning barqaror emasligidir. Ko'plab o'quvchilar boshlang'ich bosqichda faol bo'lsalar-da, vaqt o'tishi bilan qiziqishning pasayishi va muntazamlilikning yo'qolishi kuzatiladi. Bu esa o'rganish jarayonining uzluksizligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ikkinchi muammo – o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Mustaqil o'rganishda aniq reja tuzish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'z progressini nazorat qilish juda muhim. Biroq ko'plab o'quvchilar bu jarayonni tizimli ravishda olib bora olmaydilar, natijada o'rganish samarasiz bo'lib qoladi.

Shuningdek, mos o'quv resurslarini tanlashdagi qiyinchiliklar ham dolzarb muammolardan biridir. Internetda juda ko'p materiallar mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi bizga kerakli bo'lavermaydi. Noto'g'ri yoki haddan tashqari murakkab materiallardan foydalanish o'quvchining motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

Bu muammolarni yengishda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy mobil ilovalar, onlayn platformalar va multimedia resurslari o'quvchilarga tilni mustaqil o'rganish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Masalan, interaktiv ilovalar orqali grammatika va lug'atni mustahkamlash, video va podkastlar orqali esa tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Biroq texnologiyalardan foydalanishning o'zi yetarli emas. Agar o'quvchi ularni maqsadsiz va tartibsiz ishlatsa, bu samaradorlikni kamaytiradi va chalg'ituvchi narsalarga olib keladi. Shu sababli texnologiyalarni to'g'ri tanlash va ularni aniq bir maqsadga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchining o'zini o'zi nazorat qila olish ko'nikmasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, muammolar va texnologiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mustaqil o'rganish jarayonining muvaffaqiyati ularning to'g'ri muvozanatiga asoslanadi.

## Natija

Mazkur nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini mustaqil o'rganish murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida bir nechta asosiy natijalar aniqlandi.

Birinchi, mustaqil o'rganishning asosiy mohiyati o'quvchining o'z ta'lim jarayoniga javobgarlikni olishiga asoslanadi. Henri Holec tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, mustaqil o'rganish o'quvchining o'z o'qishini boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ikkinchi, mustaqil o'rganish jarayonida psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. David Little ta'kidlaganidek, o'quvchining o'rganish jarayoniga bo'lgan munosabati va refleksiyasi uning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Uchinchi, mustaqil o'rganish yagona shaklda emas, balki turli strategiyalar va yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Phil Benson fikriga ko'ra, mustaqillik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, bu esa har bir o'quvchining individual yondashuvini talab qiladi.

To'rtinchi, raqamli texnologiyalar mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi muhim vosita hisoblanadi, biroq ulardan samarali foydalanish o'quvchining o'zini boshqarish ko'nikmalariga bog'liq.

## Muhokama

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil o'rganish murakkab va ko'p omilli jarayondir. Henri Holec tomonidan ilgari surilgan g'oya asosida:

"Learner autonomy is the ability to take charge of one's own learning." (Holec, 1981)

Bu fikr mustaqil o'rganishda o'quvchining to'liq javobgarligi asosiy rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Biroq David Little ta'kidlaganidek:

"Autonomy is essentially a matter of the learner's psychological relation to the process and content of learning." (Little, 1991)

Bu esa jarayon faqat tashkiliy emas, balki psixologik jihatdan ham muhim ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, Phil Benson fikricha:

"Autonomy is not a single, easily described behavior, but a capacity that can take many different forms." (Benson, 2001)

Bu yondashuv mustaqil o'rganishda yagona metod yo'qligini, har bir o'quvchi o'ziga mos strategiya tanlashi kerakligini bildiradi.

Umuman olganda, mustaqil o'rganish nafaqat til o'rganish jarayoni, balki shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi faoliyatdir.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini mustaqil o'rganish zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi va o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil o'rganish jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchining motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish darajasi va haqiqatdan foyda beradigan strategiyalarni qo'llay olishiga bog'liq.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'quv materiallari mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, qachonki ulardan oqilona va maqsadli ravishda foydalanilsa. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda amaliy tadqiqotlar olib borish, xususan, mustaqil o'rganish samaradorligini oshiruvchi aniq metod va texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Holec, H. (1981). *Autonomy in foreign language learning*. Oxford: Pergamon.
2. Little, D. (1991). *Learner autonomy: Definitions, issues and problems*. Dublin: Authentik.
3. Benson, P. (2001). *Teaching and researching autonomy in language learning*. London: Pearson Education.
4. Benson, P., & Voller, P. (1997). *Autonomy and independence in language learning*. London: Longman.